

Assalomu alaykum Xalq ta'limi vazirligi jamoasi. Men Sultonov Jahongir maktabda informatika fani o'qituvchisi bo'lib ishlayman. 2020-2021 o'quv yilida nashrdan chiqqan 5, 8, 9 sinf "Informatika va axborot texnologiyalari" darsligidan foydalanish boshqa informatika fani o'qituvchilari kabi meni han quvontirdi. Chunki ushbu yangi va zamonaviy darslikdan foydalanish o'qituvchilar va o'quvchilarga fan yutuqlari va yangiliklarini bilish va o'rganishiga turtki bo'ladi. Natijada IT sohasi respublikamiz maktablaridan boshlab puxta rivojlanadi. Nashrdan chiqqan yangi darslikdagi mavzular orqali hozirgi davrning dolzarb bo'lgan yo'nalishlari yoritilgan deb hisoblayman. Lekin meni nazarimda o'quvchilar maktabda informatika va axborot texnologiyalari fani bo'yicha kengroq tasavvurga ega bo'lishlari kerak deb hisoblayman. Shular munosabati bilan men ham yaqin yillarda nashrdan chiqadigan 6, 7, 10, 11 sinflar uchun mo'ljallangan "Informatika va axborot texnologiyalari" darsligi mavzulari bo'yicha takliflarimni bildirmoqchiman. Men sizlarga havola etayotgan mavzular ro'yxatini shakllantirishda boshqa informatika fani o'qituvchilarini ham takliflari inobatga olingan. Mavzularni tuzishda eng ko'p foydalaniladigan dasturlar va bo'limlar nazarda tutilgan. Albatta bu takliflar kamchiliklardan holi emas va buning uchun oldindan jamoadan uzur so'rayman. Taklif qilinayotgan mavzular yaqin yillarda nashrdan chiqadigan darsliklarda o'z aksini topadi deb umid qilib qolamiz.

- 7 sinfdan sanoq tizimlari haqidagi mavzularni optimallashtirilgan holatda o'rgatish.
- Windows 10 (20H2 yangilanish versiyasi) operatsion tizimining imkoniyatlari.
- Windows 10 operatsion tizimining bosh menyusidagi "параметры" bo'limi.
- Windows 10 operatsion tizimiga mobil ilovalarni o'rnatish.
- Windows 10 operatsion tizimiga mobil qurilmalarni bog'lash.
  
- Optik belgilarni aniqlash (ing. OCR) texnologiyasi haqida.
- Adobe Acrobat Pro DC dasturida ishlash.
  
- Robototexnika va mexatronika haqida tushuncha. Arduino 1.8.13 dasturi.
  
- Microsoft PowerPoint 2019 (Google Slides, Prezi 6.0 dasturlari haqida qisqacha ma'lumot)
- Camtasia Studio 9
  
- Excel 2019 dasturida ishlash. (optimallashtirilgan holatda o'rgatish)
  
- Global internet tarmog'ida ishlash asoslari.

- Qidiruv tizimlari va ularning imkoniyatlari.
  - Google veb-sayti imkoniyatlari misolida (barcha imkoniyatlari haqida qisqacha ma'lumot).
  - Veb-portal va interfaol internet xizmatlari haqida tushuncha.
  - Elektron hujjat aylanish tizimini boshqarish.
  - Bulutli texnologiyalari haqida tushuncha.
  - To'lov tizimlari haqida.
  - Yandex.Dengi va Webmoney to'lov tizimi.
- 
- Axborot tizimlari haqida tushuncha.
  - Ma'ulmotlari ombori va ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari haqida tushuncha.
  - SQL tili haqida tushuncha. Access 2019 dasturida ishlash.
  - Sun'iy intellekt va ekspert tizimlari haqida tushuncha.
  - Sun'iy neyron tarmoqlar haqida tushuncha.
  - Bioinformatika, xemoinformatika va geoinformatika haqida tushuncha.
- 
- Veb dasturlash asoslari.
  - Frontend, Backend va Full Stack web-dasturlash texnologiyalari haqida tushibcha.  
(PHP/JavaScript/CSS/MySQL/Python/ASP.NET)  
freymvork: Bootstrap/Laravel/React JS/Vue JS/Angular JS/jQuery/Django/  
dizayn va grafika: Figma/ Sketch/ Adobe XD/ InVision Studio/ Photoshop CC 2021  
yoki:
  - PHP va MySQL (PHPStorm Community/ Visual Studio Code/ Sublime Text)  
freymvork: Bootstrap/ Laravel/
  - JavaScript (WebStorm Community/ Sublime Text/ Visual Studio Code)  
freymvork: Bootstrap/ React JS/ Vue JS/ Angular JS/ jQuery/
  - Python (PyCharm/ Sublime Text/ Visual Studio Code)  
freymvork: Django/
  - SEO haqida tushuncha.
- 
- Mobil dasturlash asoslari.
  - Kotlin dasturlash tilida ishlash (kotlinlang.org, Sublime Text, Android Studio, IntelliJ IDEA)
  - Kompyuter grafikasi asoslari.

- Adobe Photoshop 2021 dasturida ishlash. (rastrli grafika)
- Adobe Illustrator 2021 dasturida ishlash. Adobe Autocad 2021 dasturi. (vektorli grafika)
- Kompyuter yordamida loyihalashtirish tizimi dasturlari. (rus. SAPR)
- Uch o'lchamli (3D) grafika.
- Rendering haqida tushuncha.
- Blender dasturi.
  
- Videotahrirlash dasturlari haqida ma'lumot. Adobe Premiere 2021 va Adobe After Effects dasturi.
  
- Axborot xavfsizligi haqida. Kriptografiya.
- Axborot xavfsizligini ta'minlash usullari.
- Axborot xavfsizligini Windows 10 operatsion sistemasi yordamida ta'minlash (Kaspersky Total Security 2021 misolida)
- Kompyuter tarmoqlari haqida. Local tarmoq hosil qilish. VPN tarmog'ini tashkil qilish.
  
- 1 million dasturchi loyihasi haqida.